

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASI, INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYASI.

Abbasova Hayitoy Umrzoq qizi

Namangan davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim pedagogikasining zamonaviy tamoyillari, innovatsion yondashuvlar va ta'lim jarayonidagi integratsiya masalalariga bag'ishlangan. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yechimlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, pedagogika, innovatsiya, integratsiya, interfaol metodlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

Аннотация: Данная статья посвящена современным процессам педагогической педагогики, инновационным производствам и вопросам интеграции в образовательный процесс. Анализируются новые педагогические технологии, интерактивные методы и инновационные решения, используемые в обучении учащихся коррекционного класса.

Ключевые слова: начальное образование, педагогика, инновации, интеграция, интерактивные методы, современные образовательные технологии.

Annotation: This article is devoted to modern principles of primary education pedagogy, innovative approaches and issues of integration in the educational process. It analyzes new pedagogical technologies, interactive methods and innovative solutions used in teaching primary school students.

Keywords: primary education, pedagogy, innovation, integration, interactive methods, modern educational technologies.

"Bilimli avlod - kuchli davlat garovi. Ta'lim samaradorligini oshirish, fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali yoshlarni intellektual jihatdan rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi. Bu esa mamlakat taraqqiyoti va kelajagi uchun ta'lim tizimining muhimligini yana bir bor ko'rsatadi". Sh.M. Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va unda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - bu bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va ularga boshlang'ich bilimlarni berish jarayonini o'rganadigan fan. Uning asosiy maqsadi, bolalarda umumiy o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni ilmiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiy etgan shaxs

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

sifatida shakllantirishdir. Ushbu texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Interaktiv o'quv jarayoni -bu o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan ta'lim usuli bo'lib, bunda bilim olish jarayoni bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama bo'ladi. Bu usul an'anaviy darslardan farqli ravishda o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish uchun mo'ljallangan. Ushbu faoliyatda innovatsion texnologiyalar, masalan, ta'lim dasturlari, interaktiv doskalar va onlayn platformalar orqali o'quvchilar uchun ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Bu bolalarning motivatsiyasini oshiradi va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

2. Individual yondashuv -bu o'quv jarayonida har bir o'quvchining shaxsiy xususiyati, qobiliyati, o'rganish uslubi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim berish metodidir. Ushbu metodimizga quyidagi go'yalarni keltirishimiz mumkin:

a) Interaktiv texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarni turli tarbiyaviy sarguzashtlarga olib kirish va ularning hissiy tajribalarini kuchaytirish;

b) Darslar va tarbiyaviy tadbirlarni o'yinlar shaklida o'tkazish orqali ishtirokchilar o'zaro raqobatlashish va muvaffaqiyatga intilish orqali ko'proq ma'lumot olishlari;

c) O'quvchilarni ijodkorlikka chorlovchi va ularni qiziqtiruvchi tadqiqotlar o'tkazish.

3. Fanlararo integratsiya -turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish va ularni uyg'unlashtirgan holda o'qitish metodi. Ushbu yondashuvimizda o'quvchilarimizning turli fanlar bo'yicha olgan bilimlarini birlashtirib, uni amaliy qo'llashimiz mumkin. Fanlararo integratsiyamizning maqsadi:

a) O'quvchilarimiz bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari;

b) O'quvchilarning tanqidiy va tizimli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

c) Ta'lim jarayonini qiziqarli, samarali va kreativ qilishdan iboratdir.

4. Zamonaviy baholash tizimi -o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy natijalar bilangina emas, balki butun o'quv jarayonida har tomonlama baholashga asoslangan bo'ladi. Ushbu tizimimiz faqatgina an'anaviy test va nazorat ishlari bilan cheklanib qolmaydi, balki o'quvchilarning ijodiy yondashuvi, mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va o' - ustida ishlash darajasini ham baholaymiz. Zamonaviy baholash tizimining asosiy tamoyillari:

a) Shaxsiy yondashuv

b) Jarayonni baholash

c) Motivatsion yondashuv kabilar.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash individual yondashuv, fanlararo integratsiya va zamonaviy baholash usullarini tatbiq etish orqali o'quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishga erishish mumkin. Bu esa kelajak avlodning raqobatbardosh va keng dunyoqarashga ega bo'lishini ta'minlaydi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi-Toshkent,2022.
- 2.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni-2020,23-sentabr.
- 3.Vahobova D."Boshlang'ich ta'lim metodikasi va innovatsion yondshuvlar"-Toshkent:Fan va texnologiya ,2021.
- 4.Hasanboyeva O.,Qodirova Sh."Interaktiv ta'lim metodlari va ularning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati "-Samarqand, 2022.
- 5.Jalolov J."Pedagogik innovatsiyalar va ularni ta'lim jarayonida qo'llash"-Toshkent:O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi ,2020.

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISH VA UNING ISTIQBOLLARI

Suvonov Burhoniddinxo'ja Qaxramon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Turizm fakulteti 1-bosqich talabasi
burhoniddinxojasuvonov@gmail.com
+998900752320

Annotatsiya:*Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sanoatini rivojlantirish jarayonlari, sohada amalga oshirilgan islohotlar va kelajakdagi istiqbollar tahlil etilgan. Mamlakatning madaniy-tarixiy merosi, tabiiy go'zalliklari va mehmondo'stligi turizmni rivojlantirish uchun muhim omillar ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, turizmning asosiy yo'nalishlari – madaniy, ziyorat, ekologik, gastro va sog'lomlashtirish turizmi haqida batafsil ma'lumot berilgan.*

So'nggi yillarda vizasiz rejimning kengaytirilishi, infratuzilmaning rivojlanishi, investitsiyalar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi turizm sanoatining o'sishiga xizmat qilayotgani qayd etilgan. Kelajakda ekologik va agro-turizmni rivojlantirish, xalqaro marketingni kuchaytirish va transport infratuzilmasini takomillashtirish orqali O'zbekistonni global sayyohlik markazlaridan biriga aylantirish rejalashtirilgan.

Ushbu maqola turizm sohasi bo'yicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar, tadbirkorlar va sayyohlik bilan qiziquvchilar uchun dolzarb ma'lumotlarni taqdim etadi.

Аннотация:*В данной статье рассматриваются процессы развития туристической индустрии в Узбекистане, проведенные реформы в этой сфере и перспективы на будущее. Подчеркивается, что культурно-историческое наследие, природные красоты и гостеприимство страны являются важными факторами развития туризма. Также*